

**METODIK FANLAR VOSITASIDA MUSIQA O'QITUVCHILARINING
KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH
TEXNOLOGIYALARI**

Namozova Dilorom Tursunovna

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Abduraimova Barchinoy Demir qizi

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti,

Musiqqa ta'limi yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Maqolada asosan metodik fanlar vositasida musiqa o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda raqamli vositalarning musiqa metodikasi fanlaridagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik hamkorlik, refleksiya, portfolio, modellashtirish va texnologik xaritalash kabi yondashuvlarning kasbiy kompetentlikni shakllantirishdagi roli ochib berilgan. Maqolada John Dewey va Lev Vygotskiylarning tajribaga asoslangan ta'lim hamda ijtimoiy hamkorlik nazariyalari asosida interaktiv ta'limning psixologik-didaktik asoslari tahlil etilgan. Musiqa metodikasi fanlarida "aqliy hujum", "case study", "rol o'ynash", "debat", "portfolio" kabi metodlarning amaliy qo'llanishi yoritilib, ularning metodik tafakkur, ijodiy yondashuv va pedagogik mahoratni rivojlantirishdagi samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida metodik fanlarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishi xulosa qilingan.*

Kalit so'zlar: *metodik fanlar, musiqa ta'limi, kasbiy-metodik tayyorgarlik, pedagogik texnologiya, interaktiv metodlar, innovatsion yondashuv, refleksiya, portfolio, musiqa o'qitish metodikasi, raqamli pedagogika, texnologik xarita, kreativlik, pedagogik hamkorlik, metodik kompetentlik, interfaol ta'lim.*

Zamonaviy jamiyat o'zining tez va chuqur o'zgaruvchan tavsifiga ega bo'lib, bunday o'zgarishlar jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, demografik siyosat, urbanizatsiya jarayonlarida ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Ta'lim ham global umumhamjamiyat tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida jamiyatda bo'layotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olishi, ana shu asosda o'z tuzilishi va faoliyat mazmunini o'zgartirishi zarur.

Interfaol metodlar bu –jamoalarning fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi –talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda ta'limning jamiyat rivojlanish sur'atlaridan ortda qolayotganligi, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan texnologiyalarning zamonaviy talablarga to'liq javob bermasligi haqidagi masala dunyo hamjamiyati tomonidan tez-tez e'tirof etilmoqda.

Farzandlarimizning qobiliyatini ruyobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizda yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi²⁴.

Iqtidorli yoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni ijodiy kamoloti uchun barcha sharoitlarni yaratib berish ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lishi kerak.²⁵

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev, mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida yurtimizdagi tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, xalqimizni hayotdan rozi qilish eng muhim vazifa ekanligini ta'kidlab o'tdilar: "... bu islohotlarning asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlashdir... Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni - ... ular faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak", - deya ta'kidladilar²⁶

Haqiqatan ham, mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan o'zgarish va yangilanishlar, eng avvalo, odamlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarning oqilona yechimini topib xalqimizning o'z turmushidan mamnun bo'lib yashashi uchun barcha sharoitlarni yaratishga, "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan olijanob g'oyaning hayot bilan hamnafas ekanligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tabor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

²⁴ [Sh.Mirziyoev. "Bilimli avlod-buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir" T.O'zbekiston. 2018 yil. 21-bet]

²⁵ [Sh.Mirziyoev. "Xalqimizning roziligi bizning foyiatimizga berilgan eng loyiq bahodir".208-bet]

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. "Халқ сўзи" gazetasi. 2017 yil 16 yanvar. 11-son.

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir.²⁷

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to`liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu – jamoa bo`lib fikrlash deb yuritiladi, ya`ni pedagogik ta`sir etish usullarini o`ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o`quvchi – talabalarning birgalikda faoliyat ko`rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o`quvchi – talabaning dars davomida befarq bo`lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- o`quvchi – talabalarni o`quv jarayonida bilimga bo`lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo`lishini ta`minlashi;

- o`quvchi – talabaning bilimga bo`lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o`quvchi – talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirishi va ta`minlashi.

Pedagogik texnologiya masalalari, muammolarini o`rganayotgan o`qituvchilar, ilmiy – tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya – bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog`liq hamda o`qitish jarayonida qo`llanishi zarur bo`lgan TSO (TVF), kompyuter, masofali o`qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi.

O`qituvchi va o`quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi - aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o`quvchi-talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki film, tarqatma material, chizma va plakatlarni, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo`ladi, bular o`qituvchi va o`quvchi – talabaga bog`liq.

O`qituvchi dars ishlanmasini yozish bilan bir qatorda, o`qitish jarayonini oldindan loyihalashtirishi zarur, bu jarayonda o`qituvchi o`quv predmetining o`ziga xos tomonini, joy va sharoitini, TSO ni, eng asosiysi, o`quvchining imkoniyati, ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini nasardaa tutishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin bo`ladi. Qisqa qilib aytganda, o`qituvchi – talabani ta`limning markaziga olib chiqishi kerak.

O`qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko`ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo`lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi losim. Bunda o`qituvchi tomonidan bo`lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o`qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o`quvchi – talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda

²⁷ Ishmuxammedov R., Abduqodirov A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent – 2008 y. 14 b.

tuziladi. Bunday texnologik xaritaning tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogika va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar, usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi, fantasiyasi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik harita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi, aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafotlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik haritaning tuzilishi o'qituvchi tomonidan darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday haritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

O'qituvchi tomonidan o'zi o'qitayotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg'uloti bo'yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik harita unga fan, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondoshishga, tushunishga (bir semestr, bir o'quv yili bo'yicha), yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasini ko'ra olishiga yordam beradi.

Musiqqa o'qitish metodikasi fanlari bo'lajak musiqqa o'qituvchisining darsni loyihalash, musiqiy idrokni shakllantirish, ijrochilikni o'rgatish, baholash va refleksiya kompetensiyalarini tizimli rivojlantiradigan tayanch yo'nalishdir. Zamonaviy pedagogik tafakkur bu fanlarni o'qitishda talaba faolligiga tayanuvchi, hamkorlik va tajribaga asoslangan innovatsion hamda interaktiv yondashuvlarni ustuvor deb biladi. Bunday yondashuvlar natijasida nazariy bilim amaliy ijro, tahlil, muhokama va mustaqil loyihalash bilan uzviy bog'lanadi.

Pedagogik nazariyada tajribaga tayangan ta'lim g'oyasi John Dewey tomonidan asoslab berilgan bo'lib, unda o'quv jarayoni real faoliyat bilan uyg'unlashganda samaradorlik ortishi ta'kidlanadi. Ijtimoiy hamkorlik orqali o'rganish mexanizmi esa Lev Vygotskyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasida ilmiy asoslangan. Musiqqa metodikasi fanlarida aynan shu ikki nazariy poydevor interaktivlikning psixologik-didaktik asosini tashkil etadi.²⁸

Innovatsion yondashuvlarning didaktik mazmuni: Innovatsion yondashuv musiqqa metodikasida quyidagi didaktik yangilanishlarni anglatadi:

- darsni pedagogik texnologiya asosida bosqichma-bosqich loyihalash;
- audio, video, nota va vizual materiallar integratsiyasi;
- ijrochilikni o'rgatishda modellashtirish, namuna-takror-tahlil sikli;
- portfolio, refleksiya, o'z-o'zini baholash mexanizmlari;
- milliy (maqom, xalq kuy-qo'shiqlari) va jahon musiqasini qiyosiy tahlil qilish.

²⁸ Dewey, J. Experience and Education. New York, 1938. – p.45.

Bu jarayonda o'qituvchi fasilitator vazifasini bajaradi, talaba esa bilimni faol egallovchi subyektga aylanadi.²⁹

Interaktiv metodlar va ularning metodik vazifasi: Interaktiv metodlar musiqa metodikasi darslarida ayniqsa samarali bo'lib, ular talabaning metodik tafakkurini va pedagogik nutqini rivojlantiradi.

Metod Metodik vazifa Amaliy qo'llanish,
Aqliy hujum Ijodiy fikrlash Asarni talqin qilish variantlari
Klaster Tizimli tafakkur Janr va uslublarni xaritalash
Rol o'ynash Pedagogik vaziyat "O'qituvchi–o'quvchi" modeli
Case study Muammo yechimi Ijrochilikdagi xatolar tahlili
Debat Tahliliy yondashuv An'anaviy va zamonaviy ijro qiyosi
Portfolio Refleksiv baholash Ijro yozuvlari, dars ishlanmalari
Mazkur metodlar orqali talaba darsni loyihalash, tahlil qilish, tushuntirish va namoyish etish ko'nikmalarini egallaydi.³⁰

Raqamli vositalar integratsiyasi: Metodik fanlarda raqamli vositalardan foydalanish talabaning zamonaviy pedagog sifatida shakllanishiga xizmat qiladi:

- nota yozish va eshitish: MuseScore;
- audio yozish va tahlil: Audacity;
- vizual taqdimot: Microsoft PowerPoint;
- masofaviy topshiriq va hamkorlik: Google Classroom.

Bu vositalar yordamida talaba metodik topshiriqlarni raqamli muhitda bajaradi, natijani saqlaydi va tahlil qiladi.³¹

Interaktiv darsning texnologik modeli: Interaktiv dars quyidagi ketma-ketlikda tashkil etiladi:

1. Motivatsion kirish (musiqa tinglash yoki muammoli savol).
2. Guruhli faoliyat (topshiriq va muhokama).
3. Tahlil (asar yoki metodik vaziyat).
4. Amaliy ijro (vokal/cholg'u namoyishi).
5. Refleksiya (o'zini baholash).
6. Portfolio (natijani hujjatlashtirish).

Bu model nazariya va amaliyotni integratsiyalashga xizmat qiladi.³²

Pedagogik samaradorlik va natijadorlik: Tajriba-sinov kuzatuvlari shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar qo'llanilganda:

- talaba faolligi keskin ortadi;
- ijrochilikdagi xatolarni mustaqil aniqlash ko'nikmasi shakllanadi;

²⁹ Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2014. – 112-bet.

³⁰ Ishmuhammedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2016. – 98-bet.

³¹ Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va texnologiya. Toshkent, 2018. – 76-bet.

³² Musiqa ta'limi metodikasi bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent, 2020. – 54-bet.

dars ishlanmasini mustaqil tuzish malakasi rivojlanadi;
metodik fanlarga qiziqish kuchayadi.³³

Natijada bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligi sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tariladi.

Ta'limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta'sir etuvchi va uning samaradorligi, bir butunligi va muvoffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarni shu jumladan musiqa o'qituvchilarini ham, xozirgi zamon talablari asosida puxta kasbiy tayyorgarlikga ega, o'z kasbining mohir ustasi bo'lib yetishlariga asosiy e'tiborini qaratmoq fan va ta'lim qolaversa kadrlar tayyorlash tizimi oldiga qo'yilayotgan eng dolzarb vazifalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. **Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.** – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. **Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.** – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Dewey J. **Democracy and Education.** – New York: Macmillan, 1916.
4. Vygotsky L.S. **Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.** – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
5. Tolipov O'., Usmonboyeva M. **Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.** – Toshkent: Fan, 2006.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. **Ta'limda innovatsion texnologiyalar.** – Toshkent: Iste'dod, 2008.
7. Sayidahmedov N. **Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya.** – Toshkent: OTM, 2003.
8. Muslimov N.A. **Kasbiy kompetentlik va pedagogik texnologiyalar.** – Toshkent: Fan, 2013.
9. Swanwick K. **Teaching Music Musically.** – London: Routledge, 1999.
10. Elliott D.J. **Music Matters: A Philosophy of Music Education.** – New York: Oxford University Press, 1995.
11. Rajabiy Y. **O'zbek maqomlari.** – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1978.
12. Yusupova D. **Musiqa o'qitish metodikasi.** – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

³³ Xoliqov A. Musiqa pedagogikasi asoslari. Toshkent, 2019. – 67-bet.

13. Karimova V.M. **Pedagogika va psixologiya asoslari.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
14. Abduqodirov A.A. **Axborot texnologiyalari va masofaviy ta’lim.** – Toshkent: Fan, 2007.
15. Kodály Z. **Selected Writings.** – London: Boosey & Hawkes, 1974.

